

**BIZNES JARAYONINI BOSHQARISHDA ERP TIZIMIDAN
FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI**

**THE PROSPECTUS OF USING OF ERPS SYSTEM IN MANAGEMENT OF
BUSINESS PROCESS**

**ПРОСПЕКТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СИСТЕМЫ ERPS В УПРАВЛЕНИИ
БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ**

Umizakov Jamshid Botir o'g'li
Tojialiyev Burkxon Bahodir o'g'li

*Students of 4 course of the Department of Management,
State University of Economics in Tashkent*

Mob: +998-94-313-93-93

+998-93-576-73-07

umirzaqovjamshid96@gmail.com

tojialiyevburxon@gmail.com

Abstract: *Paper discusses the issues and opportunities of implementation of system Of ERPS (Enterprise Resource Planning System) to biznes activity. The role of functionsl moduls of the system in managing and controlling biznes activity and process of production also is analyzed.*

Абстракт: *В статье обсуждаются вопросы и возможности внедрения системы ERPS (Enterprise Resource Planning System) в бизнес-деятельность. Также анализируется роль функциональных модулей системы в управлении и контроле хозяйственной деятельности и производственного процесса.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada biznes faoliyatga ERP (Korxonalar resurslarini rejalashtirish) tizimini joriy etish muammolari va imkoniyatlari muhokama etilgan. Shuningdek, biznes faoliyat va ishlab chiqarish jarayonini boshqarish va nazorat qilishda ushbu tizimning funksional modullarining roli tahlil etilgan.*

KIRISH

Bugungi kunda biznesni boshqarish va ishlab chiqarishni uzluksizligini ta'minlash maqsadida turli usul va vositalardan unumli foydalanib kelinmoqda. Ayniqsa axborot texnologiyalari biznes faoliyati uchun juda keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Axborot texnologiyalarining biznesga joriy etilishi bir qancha afzallilarga ega. Misol uchun ERP(Enterprise Resource Planning System) tizimi mana shunday afzalliklarni taqdim etuvchi muhim vosita hisoblanadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili.

ERP tizimi mamlakatimizga endigina kirib kelayotgan va amaliyotga joriy etilayotgan innovatsion yangiliklardan biri hisoblanadi. Shu bois bu boradagi adabiyotlar asosan xorijlik mualliflar ishlaridan iborat. Almajali Dmaithan ERP tizimining sog'liqni saqlash tizimida qo'llanishi muammolarini o'rgangan bo'lsa, Wilson Deborah axborot texnologiyalari bozorida

ERP tizimlarining ahamiyati va rolini tahlil qilgan. Louis Columbus uz maqolasida ERP tizimlarining xizmat ko'rsatish sohalaridagi qo'llanilishi muammolari, yutuqlari, va so'nggi tendensiyalari haqida mulohaza yuritadi. Tadqiqotchilar Rubina Adam, Paula Kotze, Alta van der Merwelar kichik biznes subyektlari tomonidan ERP tizimlarining o'z faoliyatida qo'llash istiqbollari haqida bir qator izlanishlar olib borishgan.

Korxonalar resurslarini rejalashtirish (ERP) – bu asosiy biznes jarayonlarini birlashtirilgan holda boshqarish bo'lib, ko'pincha real vaqt rejimida dasturiy ta'minot va texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. ERP odatda biznes boshqaruvi dasturlarining bir toifasi sifatida tanilgan bo'lib, tashkilot ko'plab biznes faoliyatlaridan ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, boshqarish va tahlil qilish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan turli xil dasturlardan iborat majmua hisoblanadi. ERP tizimlari mahalliy yoki bulutli asosda bo'lishi mumkin. So'nggi yillarda bulutli dasturlar internetga ulanish imkoniyati bo'lgan har qanday joydan ma'lumotlarning osongina mavjud bo'lishidan kelib chiqqan holda samaradorlikning oshishi tufayli ommalashdi.

ERP umumiy ma'lumotlar bazalari yordamida asosiy biznes jarayonlarining integratsiyalashgan va doimiy yangilanadigan ko'rinishini taqdim etadi. ERP tizimlari biznes resurslarini (naqd pul, xomashyo, ishlab chiqarish quvvati) va biznes majburiyatlarining holatini (buyurtmalar, xarid buyurtmalari, ish haqi) kuzatib boradi. Tizimni tashkil etuvchi dasturlar turli bo'limlar (ishlab chiqarish, xarid qilish, savdo, buxgalteriya va boshqalar) o'rtasida ma'lumotlarni almashadi[1]. ERP barcha biznes funksiyalari o'rtasida axborot oqimini ta'minlaydi va tashqi tomonlar bilan aloqalarni boshqaradi[2].

Gartner ma'lumotlariga ko'ra, global ERP bozorining hajmi 2021 yilda 35 milliard dollar deb baholangan[3][4]. Dastlabki ERP tizimlari katta korxonalariga qaratilgan bo'lsa-da, kichik korxonalar ham tobora ko'proq ERP tizimlaridan foydalanmoqda[5]

Chunki bu tizim ishlab chiqarish yoki biznesni boshqarishda real vaqt rejimida ishlash imkoniyatini beradi. Deylik bir korxonaga qandaydir mahsulot ishlab chiqaradi. Ushbu mahsulotni ishlab chiqarishda korxonaga ichidagi bir qancha bo'limlar, sexlar va boshqa korxonani tashkil etuvchi qismlarini ishtirokini talab qiladi. Ya'ni korxonaga bo'limlarining funksiyalari va boshqa imkoniyatlarini qandaydir kompyuter tizimida shakllantirish zarurati tug'iladi. Aynan shu tizim orqali korxonadagi haqiqiy vaziyatni kuzatish va boshqarish mumkin. Masalan, omborxonada qandaydir hom-ashyoda kam miqdorda qolgan, va agar yana huddi shunday hom-ashyo keltirilmasa, korxonaga ma'lum muddatdan so'ng ishlashdan, mahsulot ishlab chiqarishdan to'xtab qoladi. Bu esa korxonaga uchun juda katta moddiy ziyon keltirib chiqarishi mumkin. Aynan shunday holatlarda ERP tizimlar yordamga keladi. Ushbu tizimga korxonaning har bitta bo'limi ulanadi va bu tizim yordamida korxonaga bo'limlari o'rtasida doimiy ma'lumot almashinuvi jarayoni sodir bo'ladi. Ushbu holatda korxonaning hom-ashyolarni yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi bo'limi omborda hom-ashyodan qancha qolganligini aniqlaydi. Keyin u korxonadagi mahsulot ishlab chiqarish bo'limi yordamida(ularni mahsulot ishlab chiqarish tezligini bilgan holda), omborda qolgan hom-ashyo qancha muddatga yetishini hisoblashadi va ishlab chiqarish bo'limi ma'lum vaqt to'xtovsiz ishlashi uchun(yoki korxonaga tushgan buyurtmalarni bajarish uchun) yana qancha hom-ashyo kerak bo'lishi hisoblab chiqishadi. So'ng ular hom-ashyo yetkazib beruvchi boshqa korxonalar bilan bog'lanib kerakli hom-ashyolarni buyurtma berishadi.

ERP tizimi bir qator funksional sohalarini qamrab olishi bilan tadbirkorlik va ishlab chiqarish

jarayonida qo'llaniladigan boshqa xuddi shunday tizimlardan farq qiladi. ERP tizimlarida bunday funksional sohalar ERP modullari sifatida ataladi va guruhlanadi. Korxonalar moliyaviy boshqaruvida ERPning moliyaviy jarayonlarni amalga oshirishga qaratilgan modullaridan foydalanish mumkin. Buning uchun maxsus modular mavjud. Maslan, moliyaviy hisob funksional modulida bosh hisob, asosiy aktivlar, to'lovlar, voucher berish, muvofiqlashtirish va to'lovlar, qarzdorliklar va yig'ishlar, naqd pulni boshqarish, moliyaviy mustahkamlanish kabi funksiyalar amalga oshirilsa, boshqaruv hisobi modulida esa byudjetlash, xarajatlarni hisoblash, xarajatlarni boshqarish, faoliyatga asoslangan hisob-kitob, hisob-kitob, shot-faktura (ixtiyoriy) kabi vazifalar bajariladi. Korxonada va tashkilotlarda xodimlarni ishga olish va ishdan olish, 'qitish, ish rejalashtirish, ish haqi, imtiyozlar, pensiya va nafaqalar rejasi, xilma-xillikni boshqarish, pensiyaga chiqish kabi vazifalarni inson resurslarini boshqarish moduli orqali amalga oshiriladi.

ERP tizimi biznes va ishlab chiqarish jarayoni faoliyat yo'nalishi va sohalariga qarab turli funksional vazifalarni bajarish imkonini beradi. Masalan korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish maqsadida ERP tizimining ishlab chiqarish moduli muhandislik, materiallar ro'yxati, ish buyurtmalari, rejalashtirish, quvvat, ish jarayonini boshqarish, sifat nazorati, ishlab chiqarish jarayoni, ishlab chiqarish loyihalari, ishlab chiqarish oqimi, mahsulot hayot siklini boshqarish kabi murakkab jarayonlarni yagona tizimga birlashtirib beradi. Buyurtmalarni qayta ishlash moduli orqali buyurtma uchun naqd pul, buyurtma kiritish, kredit tekshiruvi, narxlash, mavjudlik va'dasi, inventarizatsiya, yuk tashish, savdo tahlili va hisobot berish, savdo komissiyalari haqidagi umumiy ma'lumotlarni bir joyga to'plash va qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'linadi.

Bugungi kunda globalshauv jarayonlari va iqtisodiy intergratsiya jarayonlari ta'minot zanjirlari sohasining keng rivojlanishiga olib keldi. Ta'minot zanjirlarisiz global iqtisodiy tizimni tasavvur qilish mumkin emas. Ta'minot zanjiri sohasi uzluksiz va samarali faoliyat yuritishida ERP tizimi muhim rol o'ynaydi. Ta'minot zanjirini boshqarish moduli ta'minot zanjirini rejalashtirish, yetkazib berishni rejalashtirish, mahsulot konfiguratori, buyurtma uchun naqd pul, xarid qilish, inventarizatsiya, omborxonaga yuklarni qabul qilish, joylashtirish, yig'ish va qadoqlash kabi funksiyalarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali dunyoning turli mintaqalaridagi hamkorlar bilan samarali faoliyat olib borish imkoni yaratiladi.

ERP tizimining qulayligini biznes va ishlab chiqarishning turli sohalarida qo'llanilishida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Misol uchun startap loyihalarni boshqarish, loyihani rejalashtirish, resurslarni rejalashtirish, loyiha xarajatlari, ishni taqsimlash tuzilishi, hisob-kitoblar, vaqt va xarajatlar, samaradorlik birliklari, faoliyatni tashkil etishda ERPning loyihalarni boshqarish modulidan unumli foydalanish mumkin. Ushbu funksional modul loyihalarning samarali va o'z vaqtida amalga oshirilishida, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash hamda loyiha ustidan real vaqt rejimida nazoratni olib borish imkoniyatini taqdim etadi.

Bundan tashqari ERP tizimi mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM) (savdo va marketing, komissiyalar, xizmatlar, mijozlar bilan aloqa, call-markaz qo'llab-quvvatlashi – CRM tizimlari har doim ham ERP tizimlarining bir qismi hisoblanmaydi, balki biznesni qo'llab-quvvatlash tizimlari (BSS)), yetkazib beruvchi bilan munosabatlarni boshqarish (SRM) (yetkazib beruvchilar, buyurtmalar, to'lovlar), ma'lumotlar xizmatlari (mijozlar, yetkazib beruvchilar yoki xodimlar uchun turli xil „o'z-o'ziga xizmat“ interfeyslari), maktablar va ta'lim muassasalarini boshqarish, shartnoma boshqaruvi (shartnomalarni yaratish, monitoring qilish va boshqarish,

ma'muriy yuklarni kamaytirish va huquqiy xavflarni minimallashtirish. Ushbu modullar ko'pincha shartnoma shablonlari, elektron imzo imkoniyatlari, shartnoma bosqichlari uchun avtomatik ogohlantirishlar va kengaytirilgan qidiruv funksiyalari) kabi funksional modullarni ham o'z ichiga qamrab olgan.

ERP bozori statistik ma'lumotlariga ko'ra, bu 2019 yildagi 94,05 milliard dollardan 0,69 foizga biroz o'sishni anglatadi. ERP dasturiy ta'minot bozori 2020-yilda 94.71 milliard dollarni tashkil etdi. 2023 yilda 181,5 milliard dollargacha o'sdi. Ishlab chiqarish 33,66% bilan ERP ning asosiy foydalanuvchisi hisoblanadi. ERP dasturiy ta'minotining qolgan eng yaxshi iste'molchilari quyidagi sohalarni o'z ichiga oladi:

- 14,85% axborot texnologiyalari
- 13,86% professional yoki moliyaviy xizmatlar
- 9,90% tarqatish va yoki ulgurji
- 6,93% davlat sektori va notijorat
- 4,95% sog'liqni saqlash
- 3,96% chakana savdo
- 3,96% kommunal xizmatlar
- 1,98% qurilish
- 1,98% konchilik
- 0,99% ta'lim
- 0,99% transport[]

Ko'p hollarda ERP tizimlarni ma'lum bir vazifani bajaruvchi boshqa dasturiy ta'minot vositalari bilan almashtirib qo'yishadi. Masalan, ERP tizimlarni CRM(Customer Relationship Management) tizimi bilan yoki ERP tizimlarni buxgalteriya va soliq dasturlari bilan bir xil dastur deb hisoblashadi. ERP tizimlarning asosiy boshqa tizimlardan asosiy farqi, ERP tizimlar korxonalar resurslarini biron-bir qismini emas, balki uning barchasini boshqarish uchun mo'ljallangan. Ya'ni quyidagicha sanab chiqish mumkin:

- korxonaning barcha bo'limlari vazifalari va ma'lumotlar bazalarini integratsiya qiladi, birlashtiradi;

- korxonani yaxlit axborot-dasturiy tizimga birlashtiradi;

- korxonadagi har qanday muammolarni hal qilishga yordam beradi.

- ERP tizimlar korxonalar faoliyat olib borishiga qanday yordam bera oladi?

- ERP tizimlari korxonalar uchun muqobil yechim bo'lib, bunda korxonalar masshtabi, unda filiallar bor-yo'qligi va ularni bir-biridan qanchalik uzoqda joylashgani muammo tug'dirmaydi:

- korxonalar ichida bo'limlari o'rtasidagi hujjatlar almashinuvini tezlashtiradi;

- axborot va ma'lumotlarni tezkorlik bilan ko'rish imkonini beradi;

- boshqa joyda ishlovchi bo'limlar, filiallar va xodimlarni samarador boshqarish uchun xizmat qiladi.

- Korxonadagi barcha moliyaviy ishlarni yaxlit tizimga birlashtirish

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ERP tizimini biznes jarayonini boshqarishda foydalanish tadbirkorlik subyektlariga nafaqat biznes faoliyati sohalarini integratsiyalash balki ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va nazorat qilish, inson resurslarini samarali taqsimlash va boshqarish, mahsulot ishlab chiqarish, tarqatish, buyurtmalar qabul qilish va yetkazib berishni

o'z vaqtida amalga oshirish, ta'minot zanjiri uzluksizligini ta'minlash, korxonalar ma'lumotlarini bir joyda to'plash, qayta ishlash va tahliletish orqali istiqboldagi ko'rsatkichlarni belgilash, tadbirkorlik subyekti faoliyati bilan bog'liq kelajak rejalarini tuzish va amalga oshirishda katta hamiyat kasb etadi. Bu tizimning afzalligi shundaki, u biznesning real vaqtdagi ishlashini ta'minlaydi, to'g'ridan-to'g'ri nazoratni amalga oshirishga yordam beradi, moliyaviy resurslarni tejashga, biznes faoliyatni raqamlashtirishga, ma'lumotlar almashinuvidagi tezkorlikka, umuman olganda biznesning mavjud imkoniyatlardan keng foydalanishiga va xavflar(ta'minot zanjiri)ga tezkor javob berish kabi bir qator imkoniyatlarni taqdim etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Almajali, Dmaithan (2016). "Antecedents of ERP systems implementation success: a study on Jordanian healthcare sector". *Journal of Enterprise Information Management* 29 (4): 549–565. doi:10.1108/JEIM-03-2015-0024.
2. Radovilsky, Zinovy. *The Internet Encyclopedia*, Volume 1. John Wiley & Sons, Inc., 2004 — 707-bet. ISBN 9780471222026.
3. Wilson, Deborah „The ERP Software Market: \$35 billion+, 40 years in the making, but still growing nicely!" by Chris Pang“. *Blogs.gartner.com* (2019-yil 19-aprel). Qaraldi: 2022-yil 24-iyul.
4. Louis Columbus. „Predicting The Future Of Services-Centric ERP“. *Forbes.com*. Qaraldi: 2022-yil 24-iyul.
5. Rubina Adam, Paula Kotze, Alta van der Merwe. 2011. Acceptance of enterprise resource planning systems by small manufacturing Enterprises. In: *Proceedings of the 13th International Conference on Enterprise Information Systems*, edited by Runtong Zhang, José Cordeiro, Xuewei Li, Zhenji Zhang and Juliang Zhang, SciTePress, p. 229 – 238
6. <https://truelist.co/blog/erp-statistics/> ERP STATISTICS written by Branka, 17th february in 2024.